

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 1 ISS: 12 (2024)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN  СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА 

INSURANCE



№	MUNDARIJA	
1.	ЎЗБЕКИСТОН СУҒУРТА БОЗОРИДА ВОСИТАЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ ЭКОНОМЕТРИК ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ВА ПРОГНОЗЛАШ Матиязова Санобар Ражаббайовна	1
2.	СУҒУРТА БОЗОРИДА ИСТЕЪМОЛЧИЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ Жакбаров Сардор	4
3.	ТАКОФУЛ РИВОЖИНИНГ ТАРИХИЙ ЖИҲАТЛАРИ ВА ТАРҚАЛИШ ГЕОГРАФИЯСИ Абдуллаев Равшан Вахидович, Дадабаев Умиджон Абдусамат ўғли	7
4.	ЎЗБЕКИСТОНДА СУҒУРТА МАҲСУЛОТИНИ СОТИШ КАНАЛЛАРИНИНГ БУГУНГИ ХОЛАТИ Абдимўминова Саодат Тахиржонова	10
5.	ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ СУҒУРТАЛАШДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТАЛАБИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ Нуруллаев Абдулазиз Сирожиддинович	13
6.	O'ZBEKISTONDA SPORT SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI M.N.Mamatov	16
7.	SUVEREN KREDIT REYTINGNING MAMLUKAT MOLIYASIGA TA'SIRI Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li	19
8.	VENCHUR FONDLARINI TASHKIL ETISH: JARAYON VA STRATEGIYALAR Talapova Nargiza Baxriddinovna	21
9.	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ БЮДЖЕТ СИЁСАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ Имомов Хамдилла Хамдамович	24
10.	MILLIY IQTISODIYOTDA MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANISHDA HUDUDLAR IQTISODIY VA INVESTITSION SALOHİYATINING NAZARIY ASOSLARI Yusupov Ruslan	27
11.	LOGISTIKA VA TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASH UCHUN MOLIYAVIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI Maxmudov Samariddin Baxriddinovich	31
12.	MDH MINTAQASIDA TRANSPORT SOHASIDAGI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EOII TRANSPORT INTEGRATSIYASINING TASHQI OMILLARI VA XAVFLARI Xo'jayev Fazliddin Elmurodovich	35
13.	COMBATTING THE SHADOW ECONOMY AS AN IMPORTANT DIRECTION OF ECONOMIC POLICY FOR AN INCLUSIVE DEMOCRATIC SOCIETY (EXPERIENCE OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES AS AN EXPAMPLE) Norbaev Tura, Abduraufov Jaloliddin	37
14.	EVROOSIYO IQTISODIY HAMJAMIYATI BILAN IQTISODIY HAMKORLIK MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TAMOIYILLARI Hamdamova Nilufar Hamdullo qizi	42
15.	AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI MOLIYAVIY RISKLARINI ANIQLASH YO'LLARI Raximov Abduxalil Toshbotirovich	45
16.	AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING ODDIY AKSIYALARI QIYMATI BAHOLASH USULI Xurramov Eshmamat Xudoyberdivich	48
17.	СУҒУРТА БОЗОРИ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИННОВАЦИЯЛАР Баратова Динора Алишеровна	51
18.	DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARI IJROSI DAVLAT MOLIYASI BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA Ramozonov Nodir Mardonovich	53



DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARI IJROSI DAVLAT MOLİYASI BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA

Ramozonov Nodir Mardonovich

Bukhara teaching MCHJ rahbari

email: nodirramazonov106@gmail.com

ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 12

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss12/237

ABSTRACT

Ushbu maqolada davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish va boshqarishning nazariy hamda amaliy asoslari tahlil qilingan. Davlat byudjeti iqtisodiy tizimning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, uning daromad manbalari davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida Adam Smit, Jon Meynard Keynes, Milton Fridman, Richard Masgreyv, Avinash Diksit, Jeyms Bukanan va Robert Barro kabi yetuk iqtisodchilarning nazariyalari o'rganilgan. Shuningdek, soliqlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, fiskal siyosatning davlat byudjeti barqarorligidagi o'rni va soliq tizimining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. O'zbekiston misolida davlat byudjeti daromadlarining shakllanishida bilvosita soliqlarning yuqori fiskal faktor sifatida tutgan o'rni ham o'rganilgan. Tadqiqot natijalari davlat byudjeti daromadlarini oshirish va moliyaviy boshqaruvni takomillashtirishga oid tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

KEYWORDS

Davlat byudjeti, fiskal siyosat, soliqlar, iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy menejment, bilvosita soliqlar, bevosita soliqlar, daromad

Kirish (Introduction/Введение)

Davlat byudjeti makroiqtisodiy iqtisodiy faoliyatning muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Chunki davlat byudjeti daromadlarini soliqlar vositasida shakllantirish orqali asosan milliy daromad qayta taqsimlanib, davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur resurslarni yig'ish va taqsimlash jarayonini qamrab oladi. Davlat byudjeti daromadlari davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Chunki, davlat moliyasining markaziy bo'g'inini tashkil qiluvchi davlat byudjeti daromad va xarajatlarning mutanosibligi davlat moliyasi barqarorligining negizini tashkil qiladi. Ushbu maqolada davlat byudjeti daromadlari va uni shakllantirish siyosatining konseptual asoslari, shakllantirish va boshqarishning zamonaviy usullari, shuningdek, bu sohada muammolar va istiqbollar yoritib berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review, Анализ литературы)

Davlat byudjeti daromadlari va ularni shakllantirishning nazariy asoslari bo'yicha xorijiy iqtisodchi olimlar va ularning asarlari turli tarixi va amaliy yondashuvlar bilan ajralib turadi. Davlat byudjeti daromadlarining shakllanishi va ularni samarali boshqarish mavzusidagi tadqiqotlar ushbu sohada bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan izlanib kelingan. Xususan, klassik iqtisodiy nazariya asoschilaridan biri Adam Smit [1] asosiy nazariy qarashlariga muvofiq, soliqlar davlat byudjetining asosiy daromad manbalaridan biri bo'lib, ular davlatni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy platformasidagi xizmatlarini moliyalashtirish, ya'ni qonunchilik, xavfsizlik, ta'lim va infratuzilmani ta'minlash uchun zarurdir. Adam Smit soliqlarning adolatligi va ularning fuqarolarning daromadlariga muvofiqligi iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ekanligini ilgari su'rgan. Taniqli iqtisodchi Jon Meynard Keynes [2] XX asrning eng yetuk iqtisodchilaridan biri sifatida davlat byudjeti va uning instrumentlari bo'lgan fiskal instrumentlar davlatning moliyaviy siyosatida katta ta'sirga

ega bo'lishi kerakligini e'tirof etib o'tgan. Jon Meynard Keynesning fikricha, iqtisodiy tanazzullik davrida fiskal instrumentlar vositasida davlat iqtisodiyotga faol aralashishi orqali yalpi talabni rag'batlantirish orqali jonlanish fazasiga olib chiqishi kerak. Soliqlar orqali daromadni oshirish va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish uchun xarajatlarni oshirish lozim. Keynes "kichik bo'lsa-da, davlat sarflarini oshirish orqali ishsizlikni qisqartirish"ning asosiy jihatlari tavsia etgan. Jon Keynes, bugungi kunda ham, iqtisodiy retsessiyalarga qarshi kurashish uchun davlat byudjeti instrumentlaridan faol foydalanish orqali makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi kerakligini ilgari surgan. AQSHlik iqtisodchi Milton Fridman [3], liberal iqtisodchi sifatida davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari vositasida iqtisodiyot siklik pasayish fazasida davlat aralashuvini cheklash lozimligini ilgari surgan. Milton Fridman davlatning soliqlar orqali davlat byudjetini shakllantirishni e'tirof etgan lekin, davlat xarajatlarning minimal bo'lishini tavsiya qilgan. Richard Masgreyv [4] davlat byudjeti daromadlarini davlat moliyasi barqarorligiga ta'sirini muhim nazariy yondashuvlarni taqdim etgan. Richard Masgreyv soliqlarning uch asosiy vazifasini aniqlaydi: birinchidan, davlat byudjeti daromadlarini ta'minlash, ikkinchidan, aholini qayta taqsimlash (pullarni qayta taqsimlash), uchinchidan esa, iqtisodiy faoliyatga ta'sir qilish (regulirovka qilish). U fikriga ko'ra, davlatning soliq siyosati har tomonlama muhokama qilinadigan kompleks jarayon bo'lib, unda iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash muhim hisoblanadi. Zamonaviy sharoitlarda yetuk iqtisodchilardan biri Avinash Diksit [5] iqtisodiy siyosat va davlat byudjeti daromadlari asosida strategik qarorlar qabul qilishning muhimligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlari davlat moliyasini boshqarishda siyosiy omillar va moliyaviy qarorlar orasidagi o'zaro ta'simi tushunishga yo'naltirilgan. Diksitning asarlarida byudjet siyosati, xususan soliqlar va davlat xarajatlari, strategik qarorlar sifatida ko'rib chiqiladi. Professor Jeyms M. Bukanan [6] (James M. Buchanan) davlat sektori iqtisodiyoti nazariyasining asoschilaridan biri sifatida davlat

1-jadval

Davlat byudjeti daromadlari tarkibi, mlrd. so'm

Daromad turlari / yillar		2020	2021	2022	2023	2020-yilga nisbatan 2023-yildagi o'sish, %da
Jami Daromadlar		132938	164799,4	201863,7	231721,3	174,3
1.	Bevosita soliqlar	45206,9	58930,4	64447,1	73103,6	161,7
1.1	Foyda solig'i	28712,2	38363,3	37649,9	40778,9	142,0
1.2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	15140,8	18917,7	24284,5	29917,4	197,6
1.3	Aylanmadan olinadigan soliq	1353,9	1649,4	2512,7	2407,3	177,8
2.	Bilvosita soliqlar	46428,4	56290,4	71390,2	83325,8	179,5
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	31177,4	38439	52189,4	57885,3	185,7
2.2	Aksiz solig'i	11697,3	13086,5	13455	15834,4	135,4
2.3	Bojxona boji	3553,7	4764,9	5745,7	9606,1	270,3
3.	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	21257	23036,4	23912,8	28079,5	132,1
3.1	Mol-mulk solig'i	1974,3	2457,3	4015,4	5097,7	258,2
3.2	Yer solig'i	2386,7	4082,8	5305,9	6890,1	288,7
3.3	Yer qariidan foydalanlik uchun soliq	16417,1	15811,9	13887,4	15300,3	93,2
3.4	Suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq	478,8	684,4	704,1	791,4	165,3
4	Boshqa daromadlar	20045,8	26542,2	42113,7	47212,5	235,5

byudjeti daromadlarini shakllantirishda "Qabul qilish jarayonlarida siyosiy manfaatlar"ning ahamiyatiga urg'u bergan. Jeyms Bukanan "Ijtimoiy tavsifdagi iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda Ijtimoiy tanlov" nazariyasi asosida davlat byudjeti va moliyaviy siyosatni boshqarishda siyosiy manfaatlarni aniqlash muhimligini ko'rsatadi. Davlat moliyasi sohasidagi taniqli iqtisodchilardan biri, Professor Robert Barro [7] (Robert Barro) davlat byudjeti va moliyaviy siyosatning iqtisodiy rivojlanishga ta'siriga oid tadqiqotlar olib borib, uning fikricha, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining barqarorligi iqtisodiy o'sish uchun zarur. Barro "defitsitli byudjet" va "qarz olish" muammolariga ham e'tibor qaratgan. Robert Barroning fikricha byudjet defitsiti va davlat qarzi uzoq muddatda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Jozef Stiglis [8] (Joseph Stiglitz) davlat byudjeti daromadlarining ijtimoiy va iqtisodiy adolatga ta'sirini tadqiq etgan. Stiglis davlat byudjeti va moliyasining ijtimoiy taraqqiyotga, xususan, boylikni qayta taqsimlashga ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Uning fikricha, davlatning soliq siyosati va ijtimoiy dasturlar bilan ta'minlash byudjet daromadlarini shakllantirishda muhim omillardan biri bo'lib, bu iqtisodiy adolatni ta'minlashga yordam beradi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Methods).

Ushbu ilmiy maqola doirasida olib borilgan tadqiqotlarni ilmiy bilishning ilmiy abstraksiyalash usulidan foydalanilgan. Empirik usullardan statistik kuzatish, taqqoslash, tahlil va sintez usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar (Analysis/Анализ).

Zamonaviy xorijiy iqtisodchi olimlar davlat byudjeti daromadlari, soliq siyosati va moliyaviy boshqaruvning nazariy asoslari bo'yicha turli qarashlar, ishlanmalar va tadqiqotlarni taqdim etmoqda. Ular davlat byudjetini shakllantirish, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy adolat va global iqtisodiy munosabatlar orasidagi o'zaro ta'sirni o'rganishga qaratilgan. Bu olimlarning asarlari zamonaviy byudjet siyosati va davlat moliyaviy menejmentini yanada samarali tashkil etishda muhim yo'riqnomalarni taqdim etadi.

Davlat byudjeti daromadlari davlatning moliyaviy barqarorligini va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu sohada muammolar va ularni hal etish uchun davlat soliq siyosatini, iqtisodiy tizimni va ijtimoiy dasturlarni yaxshi shakllantirishi zarur. Davlat byudjeti daromadlarini oshirish uchun soliq tizimi, inflyatsiya, xususiy sektor va investorlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish muhim hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy tizim amal qiluvchi davlatlarda davlat byudjeti daromadlarining asosiy salmog'i soliqlar hisobiga shakllanib, ushbu soliqlarni iqtisodiy mohiyati bo'yicha 3 turkumga ajratiladi. Birinchi turkum soliqlar bevosita soliqlar hisoblanib, ular asosan daromaddan olinadigan soliqlarga to'g'ri keladi. Bilvosita soliqlar asan iste'moldan olinadigan ko'p bosqichli (masalan, QQS) yoki bir bosqichli soliqlar hisoblanib, ular asosan yakuniy iste'moldan

olinadigan soliqlar hisoblanadi. Uchinchi turkum soliqlar resurs soliqlari va mol mulk solig'i hisoblanib, ularni mohiyati jihatidan real soliqlar deb yuritiladi. Real soliqlar turkumiga yaqqol misol sifatida mol mulk solig'ini keltirib o'tishimiz mumkin. Chunki ushbu soliqlarni hisoblashda asosan mulkiy qiymatliklar balans qiymati yoki real bozor bahosiga asoslanida, ularning moliyaviy manbai mulkdorlar daromadi hisoblanadi.

Umuman byudjet daromadlarining shakllanishi har bir mamlakat milliy soliq tizimining o'ziga xos modeliga asoslanib, O'zbekistonda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bilvosita soliqlar yuqori fiskal faktor rolini o'ynashini keltirib o'tishimiz mumkin.

Soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pirovardida ularni davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati turlicha bo'lmoqda (1-jadvalga qarang). Xususan, 2020-yilda jami davlat byudjeti daromadlari 132938 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 231721 mlrd. so'mga yetgan va tahlil qilinayotgan davra davlat byudjeti jami daromadlari 174,3 foizga o'sib borgan. Aholining real daromadlarini oshirish, norasmiy sektordagi daromadlarni legallashtirish siyosati natijasi o'laroq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining tahlil qilinayotgan davr boshiga nisbatan 2023-yilda 197,6 foizga o'sgan va nominal mazmunda 29917,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Tahlil qilinayotgan davrda davlat byudjeti daromadlari tarkibida yuqori dinamik o'sish bojxona bojlari, mol mulk solig'i yer solig'ida kuzatilib natijada ularning jami daromadlardagi ulushi sezilarli o'sgan. Xususan, yillik o'sish ko'rsatkichlaridagi barqaror o'sish sur'atlari ham bojxona bojlari kuzatilib, ushbu holat tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha savdo aylanmalarini ortishi hisobiga kuzatilgan. Birgina 2023-yilga nisbatan 2023-yilgi o'sish sur'ati bojxona qo'mitasi bo'yicha tushumlar 58,4 trln so'mni (shundan, 2,0 trln so'm bojxona bo'yicha o'zaro hisobga olingan QQS) tashkil qilgan. 2022-yilga nisbatan 12,4 trln so'mga oshib, ushbu o'sish sur'ati (67 foizni tashkil qilmoqda. Bojxona daromadlarining oshishi import hajmining oshishi, bojxona imtiyozlarining amal qilish muddatining tugashi, bojxona tartib taomillarini soddalashtirish, tovarlarni erkin muomalaga chiqarishni tezlashtirish va bojxona ma'muriyatchiligining yangi usullarini joriy etish bo'yicha bojxona organlari tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar bilan shartlangan. 2023-yilda Davlat byudjeti daromadlari tarkibida bevosita soliqlar 31,5 foizni, bilvosita soliqlar 36,0 foizni, resurs soliqlari 12,1 foizni va boshqa daromadlar 20,4 foizni tashkil qildi. Yirik soliq to'lovchilar hududlararo soliq inspeksiyasi hisobiga 2023-yilda davlat byudjetiga tushumlar nominal qiymati 97,7 trln so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 9,4 trln so'mga yoki 10,6 foizga oshib, byudjetga qo'shimcha daromadlar tushumini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash va ular moliyaviy barqarorligini ta'minlash davlat siyosati natijasi o'laroq, 2023-yilda jami 5,0 trln so'm (o'tkazib beriladigan daromad bilan birga) qo'shimcha daromad shakllangan. Bu asosan birlashtirilgan daromadlar bazasini kengayishi hisobiga mahalliy byudjetlarga tushumlar samaradorligini oshishi hisobiga ta'minlangan.

Bilvosita soliqlar tarkibidagi yuqori fiskal faktor rolini o'ynovchi qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) stavkasining 15 foizdan 12 foizga pasaytirilishidan qat'iy nazar birgina, 2023-yil bilan 2022-yilni solishtirganda soliqlarning Davlat byudjeti daromadlaridagi sezilarli ulushni tashkil qilmoqda. Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan to'lovlarning ulushi davlat ulushiga ega korxonalar tomonidan to'lanadigan dividendlar hisobiga oshdi.

Birgina 2023-yilda davlat byudjeti daromadlari 231,7 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga nisbatan 29,9 trln so'mga (+15 %) (2-rasmga qarang) o'sish tendensiyasi kuzatilgan.

2-jadval

Davlat byudjeti daromadlari tarkibi yillik o'zgarishi, o'tgan yilga nisbatan foizda				
	2020	2021	2022	2023
Jami Daromadlar	100	124	122	115
1. Bevosita soliqlar	100	130	109	113
Foyda solig'i	100	134	98	108
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	100	125	128	123
Aylanmadan olinadigan soliq	100	122	152	96
2. Bilvosita soliqlar	100	121	127	117
Qo'shilgan qiymat solig'i	100	123	136	111
Aksiz solig'i	100	112	103	118
Bojxonaboji	100	134	121	167
3. Resurs to'lovlari va mulk solig'i	100	108	104	117
Mol-mulk solig'i	100	124	163	127
Yer solig'i	100	171	130	130
Yer qat'idan foydalanganlik uchun soliq	100	96	88	110
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	100	143	103	112
4. Boshqa daromadlar	100	132	159	112


Hisobot davrida Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda quyidagi fiskal organlar faoliyat samaradorligini keltirishimiz mumkin:

□ O'z R. Soliq qo'mitasi tomonidan 165,9 trln so'm (jami tushumga nisbatan 71,6 %) daromadlar tushumlari ijrosi ta'minlangan.

□ O'R Bojxona qo'mitasi tomonidan 58,4 trln so'm (jami tushumga nisbatan 25,2 %) daromadlar tushumi shakllantirilgan va ular byudjetga undirilgan.

□ Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar 7,4 trln so'mni tashkil qilgan.

2023-yilda qo'shilgan qiymat solig'idan manfiy farqni qoplash uchun soliq to'lovchilarga 21,6 trln so'm miqdorida (2022-yilga nisbatan 2,3 trln so'm ko'p) qo'shilgan qiymat solig'i va kesh-bek summaları qaytarib berilganligi davlat moliyaviy barqarorligining muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qilgan.



1-rasm. 2022-23 yillarda davlat byudjeti daromadlarining tarkibiy o'zgarish dinamikasi.

1-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, davlat byudjeti daromadlarining 2022-yilda 34,5 foizi bilvosita soliqlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 36 foizga yetgan. Bevosita soliqlar esa 2022-yilda 31,9foizni tashkil etib, ushbu ko'rsatkich 2023-yilda 31,5 foizni tashkil qilgan.

Demak, davlat byudjeti daromadlari asosan bilvosita soliqlarga to'g'ri kelib ushbu soliqlar pirovard iste'mol olinadigan hisoblanadi. Bilvosita soliqqa tortish tizimining nisbatan barqaror rivojlanirish milliy iqtisodiyotda iste'mol talabini fiskal instrumentlar vositasida tartibga solish orqali joriy holatda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash mumkin.

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключение)

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish bo'yicha fiskal siyosatning ustuvor yo'nalishlari va davlat moliyaviy barqarorligiga ta'siri bo'yicha quyidagi xulosalarni tizimlashtirish mumkin:

1. O'zbekistonda davlat byudjeti daromadlari tarkibida mol mulk va yer solig'ining yuqori dinamik o'sish tendensiyasi bir tomondan mahalliy byudjetlar daromad bazasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu soliqlar mahalliy byudjetlar asosiy birlashtirilgan soliq manbalari hisoblanadi.

2. Bevosita soliqlar tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlar samaradorligini ortishi aholi real daromadlarini oshirish davlat siyosati natijasi hisoblanadi, amaldagi soliqqa tortish mexanizmi daromadlar tengsizligi riskini kuchayishiga olib kelishi mumkin. Qolaversa amaldagi soliqqa tortish tizimi yagona tekis shkaladagi stavkaga asoslanib, bunda soliq yukining kam ta'minlangan aholi qatlamiga tushishi milliy iqtisodiyotdagi iste'mol talabini rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lmaydi.

3. Bilvosita soliqlar tushumlarini jami davlat byudjeti daromadlaridagi yuqori ulushi va uning nisbiy dinamik o'sishi iste'moldan olinadigan soliqlar orqali inflyatsion bosimni kuchayishiga ta'sir qilish mumkin. Yaqin istiqbolda soliq tizimini isloh qilishda davlat byudjeti daromadlari tarkibida bilvosita soliqlar ulushi kamaytirish va daromaddan olinadigan bevosita soliqlar ulushini oshirishga qaratilgan islohotlarni olib borish maqsadga muvofiq.

References:

1. Smit A. Issledovaniye o prirode i prichinax bogatstva narodov [per. s angl. P. N. Klyukina]. — M.: Eksmo, 2016. — 1056 s.
2. Blaug M. Keynes, Djon Meynard // 100 velikix ekonomistov do Keynsa = Great Economists before Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. — SPb.: Ekonomikus, 2008. — S. 121—124. — 352 s.
3. Friedman, Milton. The Permanent Income Hypothesis // A Theory of the Consumption Function (neopr.). — Princeton University Press, 1957. — ISBN 0-691-04182-2. Arxivirovano
4. Masgreyv R. A., Masgreyv P. B. Gosudarstvennye finansy: teoriya i praktika / per. s 5-go angl. izd. [1989]. — M.: Biznes Atlas, 2009. — 716.
5. Diksit A. K., Neylbaff B. Dj.[angl.] Teoriya igr. Iskustvo strategicheskogo myshleniya v biznese i jizni = The Art of Strategy: A Game-Theorist's Guide to Success in Business and Life (2008) — M.: Mann, Ivanov i Ferber, 2016. — 494 s.
6. Byukenen Dj. Gosudarstvennye finansy v usloviyax demokrati//Otechestvennye zapiski, № 4-5 (5-6), 2002 (angl. Public Finance in Democratic Process // The University of North Carolina Press, 1967)
7. Barro R. Dj., Sala-i-Martin X. Ekonomicheskii rost / Per. s angl. — M.: Binom. Laboratoriya znaniy, 2010. — 824 s.
8. Stiglitz, Joseph E. 2000. Economics of the Public Sector, 3rd ed., Norton.